
O'QISHDAN, IZLANISHDAN, OLG'A HARAKAT QILISHDAN HECH QACHON TO'XTAMANGLAR

Oltiariq tumani hokimi Sh.Turdaliyev Povulg'on qishlog'ida tumandagi umumta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, kollej hamda texnikum bitiruvchilari bilan uchrashdi



Muloqot davomida tuman rahbari mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning o'z iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligi, Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ta'lim maskanlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ilmiy salohiyatini yuksaltirish, ta'lim sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganligini ta'kidladi.

Muloqotda joriy o'quv yilida umumta'lim maktablari va kasb-hunar maktablarini tamomlagan bitiruvchilarni ta'limni keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishlari masalasi atroflicha muhokama etildi.

Ochiq, samimiy tarzda o'tgan muloqotda tuman hokimi bitiruvchi yoshlarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob qaytardi. Uchrashuv so'nggida yoshlar uchun mehnat yarmarkalari tashkil etildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-27 18:12:40